

**PEDAGOGIK NAZOKAT VA XUSHMUOMALALIK, KASBIY
PEDAGOGIK DILKASHLIKNING O'QITUVCHI XULQ ATVORIDA
SHAKLLANISHI.**

*Termiz davlat pedagogika
instituti talabasi*

Hamida Jummayeva

*Termiz davlat pedagogika
instituti o'qituvchisi*

Kamola Shaydullayeva

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik nazokat va xushmuomalalik tushunchalarining mohiyati hamda ular o'qituvchi xulq-atvorida qanday namoyon bo'lishi tahlil etilgan. Shuningdek, kasbiy pedagogik dilkashlikning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va uning o'quv jarayoniga ta'siri yoritilgan. Pedagogik nazokat va xushmuomalalikni rivojlantirishning samarali usullari taklif etilib, bu sifatlarning ta'lif jarayonidagi ahamiyati asoslab berilgan. Ushbu maqola o'qituvchilar va pedagogik soha mutaxassislari uchun dolzarb tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: pedagogik nazokat, xushmuomalalik, kasbiy pedagogik dilkashlik, o'qituvchi xulq-atvori, pedagogik muloqot, ta'lif sifati, shaxsiy fazilatlar.

Zamonaviy ta'lif jarayonida o'qituvchining kasbiy mahorati bilan bir qatorda uning shaxsiy fazilatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lif berish nafaqat bilimni yetkazish, balki tarbiyaviy ta'sirni amalga oshirish, talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashishni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchi faoliyatida pedagogik nazokat, xushmuomalalik va kasbiy dilkashlik muhim o'rin tutadi. Ushbu fazilatlar o'quv jarayonida talabalarning o'zlarini erkin his qilishlariga, ularda darslarga bo'lgan qiziqish va ishonchni oshirishga yordam beradi. Pedagogik nazokat o'qituvchining o'zini estetik jihatdan nazokatli, odobli va hurmatli tutishini anglatadi. Xushmuomalalik esa o'qituvchining talabalar va hamkasblar bilan samimiyligi, ochiq va

do'stona munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu fazilatlar o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning jamiyatda o'zini tutish madaniyatini shakllantirishga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolada pedagogik nazokat va xushmuomalalik tushunchalarining mazmuni, ularning o'qituvchi xulq-atvoridagi ahamiyati va ushbu sifatlarni shakllantirish usullari haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, kasbiy pedagogik dilkashlikning ta'lif jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi va o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

Pedagogik nazokat- o'qituvchi axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi me'yor tuyg'usi yoki xulq va odob qoidalariga rioya qilishi demakdir. Pedagogik nazokat o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik til bilan aytiganda, nazokat insonning bir qolipdagi barqaror tasavvurlarida mujassamlashgan shaxsiy insoniy hislatlarining yig'indisidir. Pedagogik nazokat me'yorlari o'qituvchidan avvalo komil insonga xos hislatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Zero, ta'lif-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy maqsadlaridan biri komil inson tarbiyasi bo'lib, u davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan. Ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazish o'qituvchi zimmasida. Shunday ekan, hozirgi demokratik jamiyat o'qituvchisining o'zi avvalo komil inson bo'lishi, mukammal bilimlar sohibi, etuk insoniy fazilatlar egasi bo'lishi zarur. O'qituvchi xulq-atvorida pedagogik nazokat ma'lum bir muddatda shakllanib tugaydigan jarayon emas, uning omillari ham jamiyat taraqqiyoti natijasida uzlusiz sayqallanib boradi:

-pedagogik nazokat o'qituvchining butun pedagogik faoliyatida sayqallanib, takomillashib boruvchi jarayon;

-pedagogik nazokat odatda tugallangan shaklga ega bo'lmay, insoniy fazilatlar evaziga uzlusiz boyib boradi;

-o'qituvchi pedagogik nazokatning tarkibiy qismlarini ijtimoiy muhitga va odamlarning yashash tarziga, urf-odatiga qarab o'zgartirishi mumkin;

-o'qituvchi pedagogik nazokatning nozik qirralarini chuqr egallahsga doimo intilishi talab etiladi;

-pedagogik nazokatni o'qituvchi har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatda o'zi uchun eng qulay shaklga keltirib, ma'lum bir muvozanatda saqlashi lozim.

Pedagogik mahorat - yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy vondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmish qadriyatları, 0'rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilg'or xorijiy davlatlaming o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi.Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlami tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyadarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro'-e'tiborini oshiradi, o'quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uni o'qituvchi shaxsi va kasbi to'g'risida mukammal ma'lumot va tushunchalarga ega ekanligidadir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlarg ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ham ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda.

Mahoratni egallash uchun ko'p narsani bilish va qila bilish zarur. Tarbiya printsiplari va qonunlarini hamda uning tashkil etuvchilarini bilishi zarur. O'quv-tarbiyaviy jarayon va uning tashkil etuvchilarini samarador texnologiyalardan foydalanish uchun har bir konkret holat uchun ularni to'g'ri tanlab olishni, diagnostikalashni, oldindan bilishni va berilgan daraja va sifat jarayonini loyihalashni juda yaxshi bilishi zarur. "Men faqat «buyoqqa kel»ni 15-20 xilda gapira olganimdan, aft, tashqi qiyofa va ovozni 20 ko'rinishda bera olganimdan sunggina xakikiy masterga aylandim,- deydi buyuk pedagog A.S. Makarenko.

Pedagogik mahorat – shaxsning pedagogik sifatlari majmui va o'qituvchi tomonidan kasbiy pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda samarali tashkil etishni ta'minlash bo'lib, u pedagogning faoliyat mohirligini eng yuqori choq-isiga erishganligini bildiradi.

O'qituvchilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Har bir o'qituvchining muhim hayotiy o'rni, uning o'z ishining ustasi bo'lishdir.

Pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri bo'lmish dilkashlik insonning atrofdagi odamlar bilan barqaror, yaqin munosabatda bo'lishga intilishi deb ta'riflanadi. Bu intilish o'qituvchining o'quvchilar va atrofidagi kishilar bilan tez aloqa o'rnata olishi va belgilangan maqsadga erishishini ta'minlaydi. Albatta bu jarayon birdaniga sodir bo'lmaydi, ayniqsa yosh o'qituvchilardan psixologik bilim, kishilar bilan muloqotda xushmuomalalik, ehtiyotkorlik talab qilinadi. Psixologlar o'qituvchining dilkashlik xususiyati ikki toifadagi odamlar xarakterida mujassamlashgan deb ta'kidlaydilar:

Birinchisi, ekstravert shaxslar: Ular barcha ishlarda faol, jiddiy va vazmin, osoyishtalikka va tashqi ta'sirchanlikka moyil kishilardir.

Ikkinchisi, introvert shaxslar: Ular faqat o'z ichki olamiga beriluvchan, atrofidagi odamlarga aralashmaydigan, o'z-o'zini nazorat qilishga, doimo ichki xavotirga moyil kishilardir.

Pedagog olimlar o'qituvchining dilkashligi ekstravert yoki introvert xususiyatlarga ega bo'lган shaxslar xarakterining birlashuvida paydo bo'lishini ta'kidlaydilar. Biroq, ko'pincha pedagogikada ekstravert tipdagi shaxslar dilkash insonlar sifatida e'tirof etilganlar. O'qituvchida ushbu hislatlarning mavjudligi, uning pedagogik nazokat qoidalariga rioya qilib dilkashlik xususiyatlarini rivojlantirishi pedagogik mahorat sirlarini takomillashtirish zamini va shartidir.

Pedagog olimlar o'qituvchining dilkashligi ekstravert yoki introvert xususiyatlarga ega bo'lган shaxslar xarakterining birlashuvida paydo bo'lishini ta'kidlaydilar. Biroq, ko'pincha pedagogikada ekstravert tipdagi shaxslar dilkash insonlar sifatida e'tirof etilganlar. O'qituvchida ushbu hislatlarning mavjudligi, uning pedagogik nazokat qoidalariga rioya qilib dilkashlik xususiyatlarini rivojlantirishi pedagogik mahorat sirlarini takomillashtirish zamini va shartidir.

Dilkashlik munosabatini doimiy ravishda o'z kasbiy faoliyatida mujassamlashtirgan o'qituvchi quyidagilarni unutmasligi kerak:

-sinf jamoasiga nisbatan bir qolipdagi fikrlarning muayyan tizimiga ega bo'lishi;

- o'quvchilar bilan doimo erkin muloqot qila olishi, har bir o'quvchiga individual shaxs sifatida yondashishi;
- birorta ham o'quvchisining yomon bo'lishiga, ularning hurmat e'tiborini qozonmasligi mumkin emasligiga ishonch hosil qilishi;
- biror o'quvchiga nisbatan ishonchsizlik, salbiy munosabat sinf jamoasi bilan o'zaro yaxshi munosabatni yo'lga qo'yilishiga halaqit qilishini bilishi;
- o'quvchilar bilan muloqotda haddan tashqari masofani (subardinatsiya) saqlash mumkin emasligi;

Xushmuomalalilik va dilkashlik shaxsning insoniy fazilati sifatida o'qituvchining ham kasbiy faoliyatidagi yuksak fazilatlaridan biriga aylanib, o'qituvchining pedagogik muloqoti unumdorligini ta'minlaydi. Pedagogika oliy o'quv muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashda, xushmuomalalilik va dilkashlikni shakllantirish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tishni taqozo etadi. O'qituvchining dilkashligi – uchta tarkibiy qismni birlashtiruvchi jarayondir:

- muloqotda zaruriyatning mavjudligi;
- muloqotdan keyin, muloqot paytida, muloqotgacha yaxshi kayfiyat;
- kommunikativ ko'nikma va malakalarga ega bo'lish.

O'qituvchi faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. Pedagogik faoliyat o'quvchi dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiyl maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz masalalarni yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa olishida ifodalanadi.

Mahoratlari o'qituvchi o'quvchilar ruhiyatini, bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, o'zini o'quvchining o'rniliga qo'ya oladi, dars materialini bayon etish jarayonida o'quvchilarning qanday o'zlashtirayotganini payqab, zarur hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi.

Tarbiya jarayonida o'quvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatish u yoki bu yuksak axloqiy sifatlarning mohiyatini anglatish demakdir. Har bir shaxsga ta'sir etish tarbiyachining pedagogik mahorati va obro'siga bog'liq. Bunda:

- o‘quvchining ijobiyligi xatti-harakatlariga to‘sqinlik qilmasligi;
- talab aniq va tushunarli bo‘lishi;
- qo‘yilgan talab va vazifalarning natijasini bilish;
- talab o‘quvchilarning yoshi, bilim saviyasiga mos bo‘lishi, o‘quvchilarga kesatish, luqma, minnat qilish bo‘lmashligi lozim.

O‘quvchilar jamoalarini tashkil qilishda o‘qituvchidan turli-tuman usul va vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi. Jumladan:

1. O‘qituvchi jamoa a’zolarini yangi sharoitga moslashtirish jarayonida ularga ishonch, hurmat, xushmuomalalik talablarini to‘g‘ri qo‘yish, o‘quvchini tushunish va eshitab ilish mahoratiga ega bo‘lishi kerak.
2. O‘quvchilar jamoasidagi yetakchi kuch — tayanch o‘zagini tanlash.
3. Jamoa a’zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish.
4. Jamoada yangi an’ana, qonunqoidalarning dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish.
5. Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

Har bir pedagogning dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo‘ladi. Muomalaning asosiy vositasi tildir. Shunday ekan, tarbiyachi muomala jarayonida juda ehtiyyotkor bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Haqiqiy o‘qituvchi bolalarning kayfiyati noxushligini darrov fahmlaydi.

O‘quvchiga qo‘pol muomala qilish o‘qituvchining faoliyatiga putur yetkazadi. “Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dodga, ilmga va mashqqa” degan edi ulug‘ olim Arastu. Ana shu g‘oyalarga asoslangan holda tarbiyachilar quyidagilarga amal qilishi lozim:

- tarbiyada ulg‘ayayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh
- yigit-qizning betakror va o‘zigagina xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqiy erkinligini e’tiborga olish;
- o‘quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to‘laqonli bolalar yoshiga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy foydali, ko‘ngilochar va shunga o‘xshash tadbirlar tashkil etish lozimki, natijada o‘quvchilar

o‘zлари xohlagan ishga qо‘l ursin, muvaffaqiyat hissini tushunib, o‘zларига ishonchlari ortsin, axloqan barqaror bo‘lsin.

Xulosa qilib aytganda pedagogik nazokat va xushmuomalalik o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari va kasbiy kompetentsiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu sifatlar nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki talabalarda estetik va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining nazokatli va xushmuomala bo‘lishi, talabalar bilan samimiy va ochiq muloqotda bo‘lishi ularda o‘zларини erkin va ishonchli his qilishlariga yordam beradi. Maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik nazokat va xushmuomalalikni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar o‘z ustida muntazam ishlashi, muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirishi, madaniy va tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etishi zarur. Shuningdek, pedagogik treninglar va amaliy mashg‘ulotlar ushbu sifatlarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchi nazokat va xushmuomalalikni namoyon etish orqali talabalarga nafaqat bilim beradi, balki ularga ijtimoiy madaniyatni o‘rgatadi. Shu tariqa, ta’lim jarayoni nafaqat o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga, balki ularning axloqiy barkamolligiga ham hissa qо‘shadi. Bu esa jamiyatda yuqori ma’naviyatli va madaniyatli avlodni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev A.A. Pedagogik muloqot psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Karimova S.K. Ta’lim jarayonida o‘qituvchining kommunikativ kompetentsiyasi. Toshkent: Fan, 2020.
3. Xolbekova A. Nazokat va madaniyat: pedagogik nuqtai nazar. Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
4. Hasanov O. Pedagogik mahorat va muloqot psixologiyasi. Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
5. THE NEED FOR PEDAGOGICAL THINKING IN THE PEDAGOGICAL ACTIVITY OF A MODERN TEACHER SK Shapulatovna FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES 2 (24)

6. OPPORTUNITIES TO DEVELOP PEDAGOGICAL THINKING IN FUTURE TEACHERS BASED ON THE INTEGRATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES

KS Shaydullayeva Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka 3 (4)

7. BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AFZALLIKLARI

K SHAYDULLAYEVA Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (8), 52-58